I BOB.

KASBGA YO‘NALTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY VA BOSHQARUV ASOSLARI

1.1. KASBGA YO‘NALTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

1.2. MILLIY KASBGA YO‘NALTIRISH MODELI VA MAKTABNING VAZIFASI

Mazkur bob direktor uchun kasbga yo‘naltirish ishlarini alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki maktab boshqaruvining muhim yo‘nalishi sifatida tashkil etishga xizmat qiladigan tarzda ishlab chiqilgan. Unda kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘quv yili boshida rejalashtirish, mas’ullar o‘rtasida aniq taqsimlash, o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlar asosida tizimli yuritish hamda natijalarni pedagogik kengashda muntazam tahlil qilib borish tartibi yoritilgan.

1.1 Kasbga yo‘naltirishning huquqiy asoslari

Kasbga yo‘naltirish ishlari umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘quvchining kelgusidagi ta’lim yo‘nalishi va kasbiy tanlovini belgilashiga ko‘maklashadigan muhim pedagogik-boshqaruv jarayonidir. Ushbu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida’gi Qonun, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida’gi Qonun, umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti, kasbiy ta’lim tizimiga oid Prezident farmon va qarorlari hamda ta’lim sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etiladi.

Mazkur huquqiy asoslarning maktab direktori faoliyatidagi amaliy ahamiyati shundaki, kasbga yo‘naltirish ishlari tasodifiy tadbirlar shaklida emas, balki o‘quv yili davomida rejalashtiriladigan, mas’ullar o‘rtasida taqsimlanadigan, o‘quvchi haqidagi ma’lumotlar asosida yuritiladigan va natijasi pedagogik kengashda tahlil qilinadigan tizimli jarayon sifatida yo‘lga qo‘yilishi zarur. Bunda asosiy maqsad o‘quvchini muayyan kasb yoki ta’lim yo‘nalishiga majburiy yo‘naltirish emas, balki uning qiziqishi, qobiliyati, fanlarni o‘zlashtirish natijalari, psixologik xususiyatlari, sog‘lig‘i, oilaviy fikri hamda hududdagi ta’lim va mehnat bozori imkoniyatlarini hisobga olgan holda asosli kasbiy tavsiya berishdan iborat.

Direktorning asosiy vazifasi

Direktor kasbga yo‘naltirishning huquqiy asoslarini maktab amaliyotiga joriy etish uchun quyidagi ishlarni tashkil etadi:

1. Qonunchilik talablari asosida tashkil etish

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlariga oid asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik hujjatlari, davlat ta’lim standarti, metodik tavsiyalar va ichki hujjatlar ro‘yxati shakllantiriladi. Ushbu ro‘yxat direktor o‘rinbosarlari, maktab psixologi, maktab maslahatchisi, sinf rahbarlari va tegishli fan o‘qituvchilariga yetkaziladi

2. Yillik ish reja va ichki buyruq tayyorlanadi

O‘quv yili boshida maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha ichki buyruq chiqariladi. Buyruqda ishchi guruh tarkibi, mas’ullar, vazifalar, ijro muddatlari, monitoring shakllari, yuritiladigan hujjatlar va pedagogik kengashda ko‘rib chiqiladigan masalalar aniq belgilanadi.

3. Mas’ullar vazifalarni belgilash

Kasbga yo‘naltirish ishlarida direktor umumiy boshqaruvni amalga oshiradi. Direktor o‘rinbosari reja ijrosini muvofiqlashtiradi, maktab psixologi o‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati va shaxsiy xususiyatlarini o‘rganadi, maktab maslahatchisi kasbiy tadbirlar, loyihalar va hamkorlik ishlarini tashkil etadi, sinf rahbarlari esa o‘quvchi va ota-onalar bilan muloqotni yo‘lga qo‘yadi.

4. O‘quvchilarni tizimli o‘rganish mexanizmini joriy etish

7–9-sinflarda o‘quvchilarning kasbiy qiziqishi, qobiliyati, fanlarga moyilligi, to‘garak va loyihalardagi ishtiroki, psixologik xususiyatlari hamda ota-onalar fikri bosqichma-bosqich o‘rganiladi. Ushbu ma’lumotlar umumlashtirilib, har bir o‘quvchi bo‘yicha kasbga yo‘naltirish tavsiyasini shakllantirishda foydalaniladi.

5. Ota-onalar bilan muhokama qilish mexanizmini yo‘lga qo‘yish

O‘quvchi bo‘yicha shakllantirilgan kasbiy tavsiyalar ota-onalar bilan yakka tartibdagi suhbat yoki sinf yig‘ilishlarida muhokama qilinadi. Ota-onaning fikri qayd etiladi, biroq tavsiya faqat oilaning xohishi bilan emas, o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy imkoniyati va ta’lim natijalari asosida shakllantiriladi.

6. Hamkorlik tizimini tashkil etish

Maktab hududdagi kasbiy ta’lim tashkilotlari, kasb-hunarga tayyorlash markazlari, to‘garaklar, mahalliy ish beruvchilar va boshqa hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Hamkorlik doirasida uchrashuvlar, kasb egalari bilan suhbatlar, ekskursiyalar, mahorat darslari va amaliy tanishtiruv tadbirlari tashkil etiladi.

7. Natijalarni tahlil qiladi va pedagogik kengashga kiritish

Kasbga yo‘naltirish ishlari bo‘yicha har chorakda qisqa monitoring, yil yakunida esa tahliliy ma’lumotnoma tayyorlanadi. Unda o‘quvchilar qamrovi, aniqlangan kasbiy qiziqishlar, ishlab chiqilgan tavsiyalar, ota-onalar bilan o‘tkazilgan muhokamalar, hamkorlik ishlari, mavjud muammolar va keyingi vazifalar ko‘rsatiladi. Natijalar pedagogik kengashda muhokama qilinadi hamda tegishli qaror qabul qilinadi.

Mas’ullar va yuritiladigan hujjatlar

Mas’ul	Vazifasi	Yuritiladigan hujjat
Direktor	Kasbga yo‘naltirish ishlarini umumiy boshqaradi, ichki buyruq chiqaradi, natijalarni pedagogik kengashda ko‘rib chiqadi	Ichki buyruq, yillik ish reja, pedagogik kengash qarori
Direktor o‘rinbosari	Reja ijrosini muvofiqlashtiradi, sinflar kesimida ishlarning bajarilishini nazorat qiladi	Ijro jadvali, monitoring va tahliliy ma’lumoti

Mas’ul	Vazifasi	Yuritiladigan hujjat
Maktab maslahatchisi	Kasbga oid tadbirlar, to‘garaklar, loyihalar va hamkor tashkilotlar bilan ishlashni muvofiqlashtiradi	Tadbirlar rejasi, loyihalar bo‘yicha ma’lumotlari va ishtirokchilar ro‘yxati
Maktab psixologi	O‘quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari va kasbiy moyilligini o‘rganadi	So‘rovnoma, diagnostika natijalari, psixologik xulosa
Sinf rahbari	O‘quvchi va ota-onalar bilan muloqot qiladi, kuzatuv ma’lumotlarini umumlashtiradi	Suhbat qaydnomasi, ota-onalar bilan ishlash daftari
Fan o‘qituvchisi	O‘quvchining fanlarga qiziqishi, amaliy ko‘nikmalari va o‘quv natijalarini kuzatadi	Fan natijalari tahlili, tavsiya ma’lumoti
Ota-onalar	Farzandining qiziqishi, imkoniyati va kelgusi ta’lim yo‘nalishini muhokama qilishda ishtirok etadi	Suhbat qaydnomasi, ota-ona fikri varaqasi
Hamkor tashkilotlar	O‘quvchilarni kasbiy ta’lim tashkilotlari, kasb-hunarga tayyorlash markazlari va ish beruvchi imkoniyatlari bilan tanishtiradi	Hamkorlik rejasi, uchrashuv yoki ekskursiya bayonnomasi

Monitoring ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Kuzatish muddati	Natijani rasmiylashtirish shakli
7–9-sinflarda kasbiy qiziqishni aniqlash ishlari qamrovi	Har chorakda	Monitoring jadvali
O‘quvchilar bo‘yicha shakllantirilgan kasbiy tavsiyalar	Yarim yillik va o‘quv yili yakunida	Tavsiyalar reyestri
Ota-onalar bilan o‘tkazilgan muhokamalar	Har chorakda	Suhbat qaydnomalari
To‘garaklar, loyihalar va amaliy tadbirlarga jalb etilgan o‘quvchilar	Har oyda	Maktab maslahatchisi ma’lumoti
Texnikumlar va hamkor tashkilotlar bilan amalga oshirilgan ishlar	Yarim yillikda	Hamkorlik rejasi va ijro ma’lumoti
Pedagogik kengashda ko‘rib chiqilgan masalalar	Kamida yiliga 2 marta	Bayonnoma va qaror

Kutilayotgan natija

Mazkur tartib asosida maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchilar bo‘yicha ma’lumotlar yagona tartibda jamlanadi, kasbiy tavsiyalar asosli shakllantiriladi, ota-onalar bilan hamkorlik kuchayadi, texnikumlar va ish beruvchilar bilan amaliy aloqalar yo‘lga qo‘yiladi hamda kasb tanlash jarayoni o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va kelgusidagi ta’lim yo‘nalishiga mos ravishda tashkil etiladi.

TAVSIYA

Kasbga yo‘naltirishda direktorning vazifasi o‘quvchi nomidan kasb tanlash emas, balki o‘quvchi, ota-ona, psixolog, sinf rahbari, fan o‘qituvchisi va hamkor tashkilotlar ishtirokida asosli tavsiya berish tizimini tashkil etishdir. Tavsiya majburiy qaror emas, o‘quvchining ongli tanloviga yordam beradigan pedagogik-boshqaruv xulosasidir.

1.2 Milliy kasbga yo‘naltirish modeli va maktabning vazifasi

Kasbga yo‘naltirishning zamonaviy yondashuvi o‘quvchini muayyan kasbga shoshilinch yo‘naltirishga emas, balki uning qiziqishi, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari va yosh davriga mos ravishda kasblar haqidagi tasavvurini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratiladi. Bunda asosiy vazifa o‘quvchining kelgusidagi ta’lim yo‘nalishi va kasbiy tanlovini asosli va individual imkoniyatlariga mos tarzda belgilashiga ko‘maklashishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktabrdagi PQ–316-son qaroriga muvofiq 2026/2027-o‘quv yilidan boshlab yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishning bosqichli tartibi joriy etiladi. Mazkur tartib maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 5 yoshdan boshlab bolalarda kasblar haqida ilk tasavvurlarni shakllantirish, umumiy o‘rta ta’limda esa sinflar kesimida kasbiy qiziqish, qobiliyat va kelgusidagi ta’lim tanloviga tayyorgarlikni rivojlantirishni nazarda tutadi[1].

Kasbga yo‘naltirishning bosqichli tartibi

1. “Atrofimizdagi kasblar” - Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida **5 yoshdan boshlab**. O‘yinlar orqali turli kasblar haqida ilk tasavvurlar shakllantiriladi.
2. “Kasblar alifbosi” - **1–4-sinflar**. O‘quvchilarga turli kasblarning ahamiyati haqida tushunchalar beriladi, dastlabki kasbiy qiziqish rivojlantiriladi.
3. “Kasblar olami” - **5–6-sinflar**. O‘quvchilarning kasbiy faoliyat va mehnat sohalariga qiziqishi rivojlantiriladi, kelgusidagi kasbiy tanlovga tayyorgarlikning asosi yaratiladi.
4. “Mening kelajakdagi kasbim” - **7–9-sinflar**. O‘quvchilarning kasbiy qiziqishi, qobiliyati va iqtidorlari aniqlanadi, ularni akademik ta’lim yoki kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari tashkil etiladi.

Bosqichma-bosqich yondashuv o‘quvchining ongli kasbiy tanloviga xizmat qiladi. Mazkur bosqichli yondashuv maktabda kasbga yo‘naltirish ishlarini bir martalik tadbir sifatida emas, balki o‘quvchining yoshi, rivojlanish xususiyati, qiziqishi va ta’lim natijalariga tayangan uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil etishni talab qiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentimizning “Kasbiy ta’lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’ 2025-yil 23-oktabrdagi PQ-316-son Qarori

7–9-sinflar ushbu jarayonning asosiy tayanch bosqichi hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o‘quvchining fanlarga moyilligi, kasblarga qiziqishi, shaxsiy xususiyatlari va kelgusidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dastlabki qarashlari aniqroq namoyon bo‘ladi. Shu sababli 7-sinfdan boshlab kasbiy qiziqishni aniqlash, 8-sinfda o‘quvchi va ota-onalarga tavsiyalar berish, 9-sinfda esa psixologik tashxis va boshqa ma’lumotlar asosida kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli yo‘lga qo‘yiladi[1].

Kutilayotgan natija Maktabning vazifasi

Maktabning vazifasi kasbga yo‘naltirish ishlarini sinflar kesimida uzviy tashkil etish, mas’ullar faoliyatini muvofiqlashtirish va o‘quvchi bo‘yicha shakllantiriladigan tavsiyaning bir nechta manbaga tayangan holda ishlab chiqilishini ta’minlashdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda kasblar bilan tanishtirish ishlari sinf soatlari, tarbiyaviy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, rasmlar, suhbatlar va ota-onalar ishtirokidagi qisqa tanishtiruv tadbirlari orqali amalga oshiriladi. Bu bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchida mehnatga hurmat, turli kasblarga qiziqish va kasb egalarining jamiyatdagi o‘rni haqida dastlabki tasavvurni shakllantirishga qaratiladi.

5–6 - sinflarda o‘quvchilarning fanlarga, to‘garaklarga, texnik, ijodiy, sport va amaliy faoliyat turlariga qiziqishi kuzatib boriladi. Fan o‘qituvchilari, sinf rahbarlari va maktab maslahatchisi tomonidan o‘quvchining qaysi faoliyat turida faolroq ishtirok etayotgani, qanday topshiriqlarga qiziqishi va qaysi yo‘nalishda o‘zini erkin namoyon qilayotgani qayd etiladi.

7–9 - sinflarda kasbga yo‘naltirish ishlari aniq ma’lumotlar asosida olib boriladi. Bunda psixologik tashxis, so‘rovnoma, suhbat, fan natijalari, sinf rahbari kuzatuvi, to‘garak va loyihalardagi ishtiroki hamda ota-onaning fikri umumlashtiriladi. Ushbu ma’lumotlar asosida har bir o‘quvchi uchun shaxsiy kasbiy tavsiya shakllantiriladi.

Shaxsiy kasbiy tavsiyani shakllantirish:

Shaxsiy kasbiy tavsiya bitta test natijasiga asoslanmasligi kerak. Tavsiya o‘quvchi haqidagi bir nechta manbadan olingan ma’lumotlarni taqqoslash va umumlashtirish orqali ishlab chiqiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida’ 2021-yil 30-dekabrdagi 792-son Qarori

Ma’lumot manbasi	Tavsiyani shakllantirishdagi ahamiyati
O‘quvchining o‘zi bildirgan qiziqishi	O‘quvchining ichki motivatsiyasi va xohishini aniqlashga yordam beradi.
Fanlardan erishgan natijalari	O‘quvchining akademik tayyorgarligi va moyilligini ko‘rsatadi.
Psixologik tashxis xulosasi	Qiziqish, qobiliyat, shaxsiy xususiyat va temperamentni baholashga xizmat qiladi.
Sinf rahbari kuzatuvi	O‘quvchining kundalik xulqi, muloqoti va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini ko‘rsatadi.
To‘garak va loyihalardagi ishtiroki	Qiziqishning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lish darajasini aniqlaydi.
Ota-onaning fikri	Oilaviy sharoit, qo‘llab-quvvatlash imkoniyati va farzand haqidagi qo‘shimcha ma’lumotlarni hisobga olish imkonini beradi.

Bunday yondashuv tavsiyani rasmiy ma’lumot sifatida emas, balki o‘quvchining keyingi ta’lim yo‘lini belgilashga ko‘maklashadigan amaliy pedagogik vositaga aylantiradi. Tavsiya o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatiga mos bo‘lishi, ota-ona bilan muhokama qilinishi hamda yakuniy tanlovda o‘quvchining ongli qaror qabul qilishiga xizmat qilishi lozim.

Jarayon	Amalga oshirish shakli	Kutiladigan natija
Kasblar bilan erta tanishtirish	Boshlang‘ich sinflarda suhbat, o‘yin, tarbiyaviy mashg‘ulot va tanishtiruv tadbirlari	O‘quvchida mehnat va kasblar haqida ijobiy tasavvur shakllanadi.
Fan va to‘garaklarga qiziqishni kuzatish	Fan o‘qituvchilari, sinf rahbari va maktab maslahatchisi kuzatuvlari	O‘quvchining qiziqish va moyilligi oldindan aniqlanadi.
7–9-sinflarda diagnostika o‘tkazish	So‘rovnoma, psixologik tashxis, suhbat va fan natijalari tahlili	Tavsiyalar individual va asosli shakllantiriladi.
Ota-onalar bilan muhokama qilish	Yakka tartibdagi suhbat, ota-onalar yig‘ilishi, tavsiya varaqasi	Tanlov jarayonida maktab va oila hamkorligi kuchayadi.
Shaxsiy kasbiy tavsiya tayyorlash	O‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish va tavsiya shakllantirish	O‘quvchi keyingi ta’lim yo‘nalishini ongli tanlashga tayyorlanadi.
Hamkor tashkilotlar bilan ishlash	Kasbiy ta’lim tashkilotlari, ish beruvchilar va markazlar bilan uchrashuv, ekskursiya, mahorat darslari	O‘quvchi kasblar va ta’lim yo‘nalishlari haqida amaliy tasavvurga ega bo‘ladi.

Direktorning boshqaruvdagi asosiy harakatlari

Direktor ushbu modelni maktab amaliyotiga joriy etishda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Kasbga yo‘naltirish ishlarini maktabning yillik ish rejasiga kiritadi;
2. Sinflar kesimida amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va muddatlarini belgilaydi;
3. Direktor o‘rinbosarlari, maktab psixologi, maktab maslahatchisi, sinf rahbarlari va fan o‘qituvchilari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi;
4. 7–9-sinflarda o‘quvchilar bo‘yicha kasbiy qiziqish, qobiliyat, fan natijalari va ota-ona fikrini jamlash tizimini yo‘lga qo‘yadi;
5. Shaxsiy kasbiy tavsiyalarni ota-onalar bilan muhokama qilish tartibini belgilaydi;
6. Kasbiy ta’lim tashkilotlari, “Kelajak” markazlari, monomarkazlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikni tashkil etadi;
7. Kasbga yo‘naltirish natijalarini pedagogik kengashda muhokama qilib boradi.

Kutilayotgan natija

Mazkur model asosida maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari uzviy, tizimli va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan holda tashkil etiladi. O‘quvchilar kasblar haqida erta tasavvurga ega bo‘ladi, fanlar va amaliy faoliyat orqali o‘z qiziqishini sinab ko‘radi, 7–9-sinflarda esa shaxsiy xususiyatlari va ta’lim natijalari asosida kelgusidagi yo‘nalishini ongli tanlashga tayyorlanadi.

TAVSIYA

Kasbga yo‘naltirish ishlarini faqat 9-sinfda boshlash to‘g‘ri yondashuv emas. O‘quvchi kasblar haqida qancha erta tasavvurga ega bo‘lsa, fanlar, to‘garaklar, amaliy mashg‘ulotlar va loyihalar orqali o‘z qiziqishini sinab ko‘rsa, yuqori sinflarda kelgusidagi ta’lim yo‘nalishini shuncha ongli tanlaydi.

Shu bois direktor kasbga yo‘naltirish ishlarini sinflar kesimida izchil tashkil etishi, mas’ullar faoliyatini muvofiqlashtirishi va o‘quvchi bo‘yicha beriladigan tavsiyalar uning qiziqishi, qobiliyati, fanlardan erishgan natijalari, psixologik-pedagogik o‘rganish xulosasi, amaliy faoliyatdagi ishtiroki hamda ota-onalar fikri asosida shakllantirilishini ta’minlashi lozim.

I BOB YAKUNI

DIREKTORNING O‘ZINI BAHOLASH VARAQASI

Ushbu baholash varaqasi I bobda bayon etilgan normativ-huquqiy asoslar, milliy kasbga yo‘naltirish modeli hamda maktab ichki boshqaruv jarayoni amalda qanday tashkil etilganini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Direktor undan o‘quv yili boshida ishlarni rejalashtirish, yarim yillikda oraliq tahlil o‘tkazish va yil yakunida kasbga yo‘naltirish ishlari samaradorligini baholashda foydalanishi mumkin.

№	Nazorat savoli	Ha	Qisman	Yo‘q
1	Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlariga oid asosiy normativ hujjatlar ro‘yxati shakllantirilganmi?			
2	Kasbga yo‘naltirish ishlari maktabning yillik ish rejasiga kiritilganmi?			
3	Ichki buyruq orqali mas’ullar, muddatlar va vazifalar belgilanganmi?			
4	1–4, 5–6 va 7–9-sinflar kesimida kasbga yo‘naltirish ishlari alohida rejalashtirilganmi?			
5	7–9-sinflarda o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash ishlari yo‘lga qo‘yilganmi?			
6	O‘quvchilarning fanlarga, to‘garaklarga va amaliy faoliyatga qiziqishi kuzatib boriladimi?			
7	Psixolog, sinf rahbari, fan o‘qituvchisi va maktab maslahatchisi ma’lumotlari umumlashtiriladimi?			
8	Kasbiy tavsiyalar ota-onalar bilan muhokama qilinadimi?			
9	Texnikumlar, “Kelajak” markazlari, kasb-hunarga tayyorlash markazlari va ish beruvchilar bilan hamkorlik rejasi mavjudmi?			
10	Kasbga yo‘naltirish ishlari natijalari pedagogik kengashda muhokama qilib boriladimi?			

66

I BOB bo‘yicha direktor quyidagi uch savolga javob bera olishi lozim:

1. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda?

Bu jarayonda kim, qachon va qanday vazifani bajaradi?

O‘quvchiga berilayotgan kasbiy tavsiya qaysi ma’lumotlar asosida shakllantirilmoqda?

Agar ushbu savollarga javob aniq bo‘lsa, maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari rasmiy tadbirlar darajasida emas, boshqariladigan amaliy jarayon sifatida shakllanmoqda.